| Xusanova Gavhar                                                                                                                                                                                  |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI<br>TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....                                                                                   | 1270 |
| Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich                                                                                                                                                              |      |
| THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL<br>INTELLIGENCE .....                                                                                                     | 1276 |
| Olimov Davron Olimovich                                                                                                                                                                          |      |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ<br>УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ .....                                                                                        | 1281 |
| Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна                                                                                                                                                                |      |
| EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC<br>UNIVERSITIES.....                                                                                                     | 1289 |
| Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich                                                                                                                                                                  |      |
| ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA<br>TA'SIRI.....                                                                                                         | 1297 |
| Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna                                                                                                                                                                |      |
| DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH<br>OMILI SIFATIDA.....                                                                                                      | 1304 |
| Rabiyev Akram Homitovich                                                                                                                                                                         |      |
| AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV<br>TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....                                                                   | 1311 |
| Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich                                                                                                                                                                |      |
| ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО<br>ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА .....                                                                                                        | 1318 |
| Худайберганава Зарофат Захидовна                                                                                                                                                                 |      |
| К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ<br>В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ .....                                                          | 1324 |
| Мухамедова Севара Абдуллаевна                                                                                                                                                                    |      |





|                                                                                                                                   |      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                             | 1330 |
| Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich                                                                                                  |      |
| MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI .....                              | 1336 |
| Norov Murodjon Maxmudovich                                                                                                        |      |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....                               | 1342 |
| Maxkamov Otabek Muxammadjonovich                                                                                                  |      |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....               | 1351 |
| Egamberdiyev Jonibek O'ralovich                                                                                                   |      |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI .....                                                              | 1354 |
| Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich                                                                  |      |
| AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI .....                                  | 1360 |
| Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li                                                                                                   |      |
| ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... | 1365 |
| Дадабоева Муштари Хамидиллаевна                                                                                                   |      |
| SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI .....                                                                  | 1371 |
| Jalalova Dildora Jamolovna                                                                                                        |      |
| PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....                                     | 1375 |
| Karshieva Marjona Alisher kizi                                                                                                    |      |
| TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                           | 1380 |
| Qurbonova Malika Ahmad qizi                                                                                                       |      |
| SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....                                                       | 1384 |
| Uzoqov Farhod G'afarovich                                                                                                         |      |
| SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....                                               | 1388 |
| Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich                                                                                                |      |
| BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                 | 1392 |
| Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich                                                                                            |      |
| BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI .....                                               | 1396 |
| Uzoqova Ziyodaxon Abdug'aforovna                                                                                                  |      |
| RAQAMLI MOLİYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI .....                                            | 1402 |
| Muyassarzoda Fayziyeva                                                                                                            |      |
| MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI .....              | 1408 |
| Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna                                                                 |      |
| JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....                             | 1414 |
| Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich                                                                                                  |      |
| OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....             | 1425 |
| Zakirova Oisha                                                                                                                    |      |



# OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR

Zakirova Oisha

f.f.f.d., dotsent

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti "PR va menejment" fakulteti dekani  
[oisha993wc@gmail.com](mailto:oisha993wc@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Osiyo davlatlarida Janubiy Koreya, Hindiston va Yaponiyada raqamli jurnalistikada ayollar ishtiroki va faolligining shakllanishi tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli media muhitida ayol jurnalistlar duch kelayotgan imkoniyatlar va ziddiyatlar, shuningdek, gender tengligi, onlayn xavfsizlik va ijtimoiy munosabatlar masalalari o'rganiladi. Muallif raqamli jurnalistikaning ayollar uchun yangi ijtimoiy va kasbiy maydon sifatidagi ahamiyatini yoritir ekan, madaniy, institutsional va texnologik omillarning ta'sirini solishtirma tahlil etadi. Tadqiqot natijalari Osiyo davlatlarida raqamli jurnalistikada gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli jurnalistika, ayollar ishtiroki, gender tengligi, media muhit, Osiyo mamlakatlari, kiberbezorilik, ijtimoiy stereotiplar, raqamli transformatsiya.

**Abstract.** This article explores women's participation in digital journalism across three Asian countries — South Korea, India, and Japan. The study examines the opportunities and contradictions female journalists face in the digital media environment, focusing on issues of gender equality, online safety, and societal perception. It highlights digital journalism as a new professional and social arena for women, analyzing how cultural, institutional, and technological factors shape their experiences. The findings provide a comparative framework for understanding gender relations in Asian digital media and offer practical recommendations for promoting gender balance and inclusivity in digital journalism.

**Key words:** digital journalism, women's participation, gender equality, media environment, Asian countries, cyberbullying, social stereotypes, digital transformation.

**Аннотация.** В статье анализируется участие женщин в цифровой журналистике стран Азии Южной Кореи, Индии и Японии. Исследование посвящено выявлению возможностей и противоречий, с которыми сталкиваются женщины-журналисты в цифровой медиасреде, а также вопросам гендерного равенства, онлайн-безопасности и общественного восприятия. Автор рассматривает цифровую журналистику как новое профессиональное и социальное пространство для женщин, сравнивая влияние культурных, институциональных и технологических факторов на их деятельность. Результаты исследования способствуют разработке научных и практических рекомендаций по обеспечению гендерного баланса в цифровой журналистике азиатских стран.

**Ключевые слова:** цифровая журналистика, участие женщин, гендерное равенство, медиасреда, азиатские страны, кибербуллинг, социальные стереотипы, цифровая трансформация.

## KIRISH

Raqamli texnologiyalar va global axborot maydonining rivojlanishi natijasida jurnalistika tizimi tubdan o'zgarishga uchradi. Bu jarayon faqat axborot tarqatish usullarini emas, balki unda ishtirok etuvchi ijtimoiy subyektlarning mavqei va rolini ham qayta shakllantirdi. Xususan, ayollarning raqamli jurnalistikadagi ishtiroki masalasi zamonaviy ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida kun tartibiga chiqdi. Chunki raqamli jurnalistikada ayollar faqat auditoriya sifatida emas, balki faol ijodkor, blogger, tahlilchi va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi subyekt sifatida ham maydonga chiqmoqda<sup>1</sup>.

1 Byerly, C. M. (2013). The Palgrave International Handbook of Women and Journalism. Palgrave Macmillan.



Osiyo davlatlari, xususan, Yaponiya, Hindiston va Janubiy Koreya tajribalari raqamli jurnalistikada gender tendensiyalarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Chunki ushbu mamlakatlarda ayollarning media maydondagi ishtiroki o'ziga xos xususiyatlarga ega: Yaponiyada ijtimoiy tarmoqlar orqali ayollarning siyosiy faolligi o'sib borayotgan bo'lsa<sup>2</sup>, Hindistonda raqamli platforma va mobil jurnalistika orqali ayollar saylov jarayonlarini yoritishda katta rol o'ynamoqda<sup>3</sup>. Janubiy Koreyada esa ayollar onlayn jurnalistikada faol blogger, tahlilchi va mustaqil kontent yaratuvchi sifatida media maydonning turli qirralarida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, raqamli jurnalistikada ayollar ishtiroki hali ham to'liq gender tengligi ta'minlanmagan sohalardan biri hisoblanadi. Masalan, onlayn platformalarda ayollar ko'pincha kiberbezorilik, gender stereotiplari va professional rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu esa raqamli jurnalistikada ayollarning ishtirokini chuqurroq tahlil qilish va ularning salohiyatini rivojlantirish yo'llarini belgilash zarurligini ko'rsatadi.

XXI asrda internet va ijtimoiy tarmoqlar tez rivojlanishi bilan raqamli jurnalistika yangi bosqichga o'tdi. Osiyodagi Yaponiya, Hindiston va Janubiy Koreya kabi davlatlar raqamli jurnalistika va fuqarolik jurnalistikasi sohasidagi gender tengligiga oid muammolarni o'rganishda muhim keyslar hisoblanadi. Ushbu davlatlarda ayollar raqamli maydonlarda ishtirok etmoqda, lekin ularning siyosiy, media rahbarlik va keng auditoriyaga ta'siri jihatidan bir qator cheklovlar mavjud.

Yaponiya, Hindiston va Janubiy Koreya tajribalarini qiyoslaydigan bo'lsak, ulardagi umumiy jihat raqamli jurnalistika ayollar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochayotganidir. Biroq har bir mamlakatda madaniy, ijtimoiy va siyosiy muhit ta'sirida ayollar ishtiroki turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, Yaponiyada ayollar ko'proq ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lsa, Hindistonda raqamli platforma siyosiy jarayonlardagi ishtiroqni kengaytirmoqda. Janubiy Koreyada esa ayollar raqamli jurnalistika orqali nafaqat ijodiy, balki rahbarlik sohasida ham faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shu bilan birga, barcha mamlakatlarda umumiy muammo sifatida ayollar duch kelayotgan kibertahdidlar, gender diskriminatsiyasi va media maydondagi tengsizlik saqlanib qolmoqda. Bu esa raqamli jurnalistikada ayollar ishtiroqini ta'minlash uchun xalqaro va milliy darajada qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Midori Suzuki tadqiqotlarida qayd etilganidek, media savodxonlik va gender yondashuvlari fuqarolik jurnalistikasidagi ishtirokni kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Uning nazariyasiga ko'ra, media savodxon ayollar ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilik nazoratini kuchaytira olmoqda va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Aki Tonami va Hidehiro Yamamoto o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra Yaponiyadagi 1,700 dan ortiq ishtirokchi orasida o'tkazgan so'rovnoma natijasida qiziqarli xulosalarga keldi: Instagram va Twitter kabi platformalarda ayollar faolligi ortib borayotgan bo'lsa-da, siyosiy diskurslarda ularning ishtiroki hali ham past darajada ekan. Bu holat Yaponiya jamiyatidagi an'anaviy gender stereotiplari va siyosiy tizimdagi to'siqlar bilan izohlanadi. Reiko Ishiyama esa jurnalistika sohasida ayollarning ulushi kamligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, korporativ media industriyasida ayollarning rahbarlik lavozimlariga chiqishi cheklangan va ko'p hollarda ular bloggerlik yoki mustaqil onlayn jurnalistika orqali o'z pozitsiyasini bildirishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayol jurnalistlar raqamli muhitda kibertahdid va diskriminatsiyaga duch kelish holatlari ham aniqlangan. Touko Tanaka tadqiqotlarida onlayn maydonda ayollarning ijodiy faoliyati va fuqarolik pozitsiyasini erkin ifoda etish imkoniyatlari kengaygani ta'kidlanadi. Masalan, YouTube, Instagram va blog platformalarida feminizm, ijtimoiy tenglik va inson huquqlari mavzularida chiqish qilayotgan ayollar ko'payayotgani kuzatilmoqda. Demak, Yaponiyada fuqarolik jurnalistikasi ayollar uchun ijtimoiy va siyosiy faoliyat maydoni sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq an'anaviy gender stereotiplari, media sohasidagi institutsional to'siqlar va onlayn muhitdagi kiberbezorilik hali ham ayollarning to'laqonli ishtirokini cheklab turibdi. Shu bilan birga, yangi raqamli platformalar ularga jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiyada raqamli jurnalistikada ayollarning ishtiroki asosan ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali ifoda etilmoqda. Xususan, Instagram va Twitter kabi platformalar ayollarning jamiyatdagi ovozini kuchaytiradigan

2 Matsui, K. (2019). *Womenomics and Digital Participation in Japan*. Tokyo University Press.

3 Ranganathan, M., & Rodrigues, U. (2020). *Indian Women Journalists in the Digital Age: Challenges and Opportunities*. Media Asia.



muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, saylov kampaniyalari jarayonida ayol blogerlar va jurnalistlar siyosiy partiyalar dasturlarini tahlil qilish, gender tengligi va ijtimoiy muammolar yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirishda faol ishtirok etmoqdalar. Biroq, an'anaviy gender stereotiplari hanuz Yaponiya jamiyatida kuchli bo'lib qolmoqda. Bu holat professional ommaviy axborot vositalarida ayol jurnalistlarning imkoniyatlari erkaklarga nisbatan cheklanganligida ham namoyon bo'ladi. Shunga qo'shimcha ravishda, onlayn maydonda faoliyat yuritayotgan ayollar ko'pincha kiberbezorilik, salbiy fikrlar va turli shakldagi diskriminatsiyalarga duch kelishmoqda.

Shu bois, Yaponiyada raqamli jurnalistika ayollar uchun bir tomondan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda ovozini eshittirish, keng jamoatchilikka ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning xavfsiz va erkin faoliyat yuritishi uchun to'liq kafolat berolmayotgani bilan tavsiflanadi.

Yaponiya demokratik institutlari, muntazam saylovlari va nisbatan erkin matbuoti bilan tanilgan. Biroq, siyosiy huquqlar bo'yicha erkaklar va ayollar orasida katta tafovut mavjud — ayniqsa vakillik jihatidan. Shu bois Yaponiya ba'zi tadqiqotlarda "Ayollarsiz demokratiya" deb ataladi. Jahon Iqtisodiy Forumining 2023-yilgi Gender Tafovut Hisobotiga ko'ra, Yaponiya 146 davlat ichida 125-o'rinni egalladi. Bu hisobotda mamlakatning siyosat va iqtisoddagi past ko'rsatkichlari qayd etilgan: iqtisodiy ishtirok (123-o'rin), siyosiy huquqlar (138-o'rin), parlamentdagi ayollar ulushi (10%), vazirlik lavozimlarida ayollar (8,3%) va so'nggi 50 yilda birorta ham ayol davlat rahbari yo'q.

Shu sharoitda internet rivojlanishi fuqarolar va kam ta'minlangan guruhlar — ayollar, etnik ozchiliklar va yoshlar —ning siyosiy ishtiroki tabiatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yaponiya OAVlari ayollarning onlayn siyosiy harakatlarda faol ishtirok etgani va ba'zilar ommaviy natijalarga olib kelgani haqida xabar beradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va siyosiy ishtirok orasidagi bog'liqlik, ayniqsa gender kesimida, to'liq o'rganilmagan. Yaponiyalik fuqarolarning qanday siyosiy faoliyat turlarida ishtirok etishini, ayniqsa onlayn jarayonlarda, anglash muhim. Shuningdek, ular siyosiy ma'lumotni qay tarzda olishini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Genderga asoslangan onlayn siyosiy ishtirokdagi tafovutlar tahlili mamlakatning siyosiy manzarasi haqida qimmatli ma'lumot berishi mumkin. So'rovnoma 2022-yil yuqori palata saylovidan so'ng darhol o'tkazilgan, chunki bu vaqtda ko'p saylovchilar siyosiy ma'lumotlarga duch kelgan bo'lishi ehtimol qilingan.

So'rovda 18 yoshdan 79 yoshgacha bo'lgan 1 723 nafar yaponiyalik (910 erkak, 808 ayol va 5 nafar "boshqa" deb belgilangan) ishtirok etdi. Respondentlar jins, yosh (10 yillik diapazonlar bo'yicha) va 13 hududiy bloklar kesimida tanlandi, bu Yaponiya aholisi tarkibiga mos bo'lishi uchun amalga oshirildi.

So'rovda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, ko'rilgan, yozilgan va bo'lishilgan postlar turi, siyosiy munosabatlar, ovoz berish xatti-harakatlari va OAV ta'siri haqida 35 ta savol bor edi. Shuningdek, respondentlarning ayollarga qaratilgan siyosatlariga munosabati ham so'raldi. Bu Yaponiyada umumiy siyosiy ishtirok past ekanini hisobga olgan holda aholi siyosiy qarashlarini tushinishda muhim ko'rsatkich hisoblandi.

Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, Yaponiyada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda genderiy xususiyatlar mavjud: erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq siyosiy muloqot va ishtirok uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Shu bilan birga, ayollar Instagram'dan ko'proq foydalanishadi, ammo uni siyosiy maqsadlarda kam ishlatishadi. Shuningdek, Instagram ayollarda genderiy ongini kuchaytirishi mumkin. Ba'zan bu platformadagi muloqotlar siyosiy mavzularga burilib ketadi, hatto ishtirokchilar boshida bunday niyatda bo'lmagan taqdirda ham. Bu turdagi "aylana-yo'lli" siyosiy muloqot yaponiyalik ayollarning siyosiy huquqlarini oshirishga olib keladimi-yo'qmi, hali ma'lum emas.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ayollar va erkaklar siyosiy ishtiroki va siyosiy qiziqishda turli darajada namoyon bo'ladi. Yaponiyada ayollar progressiv qarashlarga moyil bo'lsalar-da, ularning siyosiy bilim darajasi va siyosiy ishonchlari pastroq.

Bundan tashqari, Yaponiyada "gender backlash" — ya'ni ayollarning jamiyatdagi faol rolini rad etish tendensiyasi ham kuzatiladi (Dalton 2017). Bu ayniqsa internetdagi muhokamalarda ko'rinadi, u yerda ayollar tanqid qilinadi yoki tahqirlanadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar ayollarga o'z fikrlarini bildirish, bir-biri bilan bog'lanish va siyosiy jarayonda ishtirok etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Yaponiyada genderiy siyosiy tafovutlar saqlanib qolmoqda, ammo ijtimoiy tarmoqlar bu bo'shliqni qisman yopishga yordam berishi mumkin.

Instagram kabi platformalar ayollar uchun nisbatan xavfsiz muhit yaratib, ularning siyosiy ongini oshirish va fikr bildirishlarini rag'batlantirishi mumkin. Bu esa uzoq muddatda Yaponiyada ayollar siyosiy ishtirokini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq, internetdagi genderiy tajovuz va salbiy muhokamalar masalasi hal etilmasa, ayollar hali ham passiv bo'lib qolishi mumkin.

Hindistonda esa raqamli jurnalistikada ayollarning ishtiroki so'nggi yillarda jadal o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Mamlakatda mobil internet tarmog'ining keng yoyilishi va raqamli platforma imkoniyatlarining ortishi ayollarning media maydondagi faolligini kuchaytirdi hamda ularga o'z fikrini erkin ifoda etish va jamoatchilikka ta'sir ko'rsatish imkonini yaratdi.





Ayniqsa, saylov jarayonlarini yoritishda ayol jurnalist va blogerlar muhim rol o'ynamoqda. Ular siyosiy partiyalar dasturlarini tahlil qiladi, elektorat fikrini shakllantirishda faol qatnashadi va siyosiy jarayonlarning shaffofligiga hissa qo'shadi. Biroq ularning ishtiroki faqat siyosiy sohalar bilan chegaralanmaydi. Hind ayol jurnalistlari raqamli maydonda gender zo'ravonlik, ta'limda tenglik, mehnat bozoridagi imkoniyatlar, sog'liqni saqlash va inson huquqlari kabi keng ijtimoiy mavzularni yoritib, keng jamoatchilikka yetib bora olmoqdalar. Shu orqali raqamli jurnalistika mamlakatda ijtimoiy adolat va gender tengligi uchun kurashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Biroq, ushbu ijobiy tendensiya bilan bir qatorda, Hindistonda ayollarning onlayn media makonidagi ishtiroki turli xavf-xatarlar bilan ham to'qnashmoqda. Ular ko'pincha kibertahdid, tahqirli munosabat, virtual tazyiq va stereotipik baholar qurboniga aylanmoqda. Bu esa raqamli maydonda ayollarning erkin va xavfsiz faoliyat yuritish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Shunday qilib, Hindiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli jurnalistika ayollar uchun jamiyatdagi turli muammolarni yoritish, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish va jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish imkonini yaratayotgan bo'lsa-da, ularning onlayn faoliyatini xavfsiz qilish va gender tenglikni ta'minlash hanuz dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Hindistonda ayol blogerlar va mustaqil jurnalistlarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki so'nggi yillarda sezilarli darajada kuchaygan. Ayniqsa, raqamli platformalar — Twitter, Facebook, Instagram va mustaqil blog saytlari orqali ular siyosiy partiyalarning dasturlari, nomzodlarning saylovoldi faoliyati hamda davlat siyosatida gender tengligi masalalari haqida batafsil ma'lumotlar tarqatmoqda. Bu jarayonda ayol blogerlar an'anaviy OAVdan farqli ravishda, erkin va mustaqil pozitsiyadan chiqish orqali siyosiy jarayonlarning shaffofligiga hissa qo'shmoqda. Ularning tayyorlayotgan kontentlari saylovchilarga turli siyosiy dasturlar mazmunini tahlil qilish, nomzodlarning gender muvozanatiga bo'lgan munosabatini baholash va jamiyatdagi tenglik masalalarini keng muhokama qilish imkonini bermoqda. Masalan, ayrim blogerlar nomzodlarning faoliyatida ayollar huquqlarini himoya qilish yoki gender diskriminatsiyasini kamaytirish bo'yicha olib borayotgan ishlarini yoritib, ularni jamoatchilik nazorati ostida ushlashga harakat qilishadi. Shu tariqa, ayol blogerlar va mustaqil jurnalistlar faqat axborot tarqatish bilan cheklanib qolmay, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish va fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Ular saylov jarayonlarida fuqarolarning tanlovini ongli ravishda amalga oshirishini ta'minlaydigan qimmatli ma'lumot manbai sifatida xizmat qilmoqda.

Hindistonda fuqarolik jurnalistikasi bilan shug'ullanuvchi ayollar faqat siyosiy jarayonlarni yoritish bilan cheklanib qolmasdan, balki jamiyatda eng dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularga ham alohida e'tibor qaratmoqdalar. Jumladan, ular ta'lim sohasida tenglik masalasi, mehnat bozoridagi gender diskriminatsiyasi, ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari va oilaviy munosabatlardagi muammolarni keng yoritish orqali muhim ijtimoiy vazifani bajarmoqdalar. Ayollar tomonidan tayyorlanayotgan materiallar ko'p hollarda an'anaviy ommaviy axborot vositalari e'tiboridan chetda qoladigan muammolarni qamrab oladi. Masalan, qishloq hududlarida qiz bolalarning ta'lim olishidagi to'siqlar, ish joylaridagi tengsizlik yoki uy-ro'zg'or doirasidagi diskriminatsiya haqidagi materiallar fuqarolik jurnalistikasi maydonida keng tarqatilmoqda. Bu esa jamiyatda "ovozsizlar ovozi"ni eshittirish, ya'ni marginal qatlamlar va himoyasiz guruhlar manfaatlarini jamoatchilik diqqati markaziga olib chiqish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ayol fuqarolik jurnalistlarining ishi faqat axborot tarqatish bilan cheklanmay, balki jamiyatda mavjud muammolarga nisbatan siyosiy va huquqiy islohotlarni talab qilishda faol platforma vazifasini ham bajaradi. Ular orqali ko'plab ijtimoiy muammolar muhokamalar markaziga aylanib, davlat idoralari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan yechim izlash jarayonlari faollashtirilmoqda.

Hindistonda ayollar olib borayotgan fuqarolik jurnalistikasi Hindiston media maydonini demokratiklashtirish, jamiyatda shaffoflik va ijtimoiy adolat prinsiplarini kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular ijtimoiy adolat va tenglikka intilish jarayonida samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Hindistonda raqamli media makonida ayollarning ishtiroki kengayib, ular turli platforma va auditoriyalarda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan faol fikr bildirmoqdalar. Ayniqsa, fuqarolik jurnalistikasi jarayonida ayollar turli ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali katta auditoriyaga ega bo'lib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda ta'sirchan omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, bu jarayon ayollar uchun doim ham ijobiy sharoit yaratmaydi. Tadqiqotchi Shakuntala Banajining ta'kidlashicha, raqamli media maydonida ayollar ko'pincha salbiy holatlarga duch kelmoqda. Jumladan, ular kibertahdidlar, onlayn bezorilik, shaxsiy hayotiga daxl qilish, tahqirlovchi izohlar va stereotipik baholar kabi omillar bilan yuzma-yuz bo'lmoqda. Bunday raqamli zo'ravonlik holatlari ayollarning media sohasidagi erkin va mustaqil faoliyatini cheklab, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda to'liq ishtirok etish imkoniyatini pasaytiradi. Shuningdek, jamiyatda mavjud patriarxal stereotiplar virtual muhitda ham o'z aksini topib, ayollarning jurnalist sifatidagi nufuzini zaiflashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada raqamli jurnalistika makonida ayollar "ikki yo'nalishli bosim"ga duch kelmoqda: bir tomondan, keng jamoatchilikka ta'sir ko'rsatish imkoniyati orqali nufuz qozonishsa, ikkinchi tomondan esa, raqamli zo'ravonlik va kiberqabihatlar tufayli faoliyatlariga to'siqlar paydo bo'lmoqda.

Hindistonda fuqarolik jurnalistikasida gender tendensiyalarini tahlil qilgan olimlardan bo'lgan Shakuntala Banaji o'z tadqiqotlarida raqamli media makonida ayollar va yoshlarning ishtiroki kengayib borayotganini



ta'kidlaydi. Unga ko'ra, Hindistonda fuqarolik jurnalistikasi orqali ayollar o'z ovozi eshittirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda, ammo ular ko'pincha kiberbezorilik, tahqirli munosabat va diskriminatsiyaga duch kelishadi. Banajining fikricha, bu holat gender tengligi masalasini nafaqat offlayn, balki onlayn muhitda ham hal qilish zarurligini ko'rsatadi. Hindistonda raqamli jurnalistika fuqarolik jurnalistikasining asosiy ifodasiga aylanganini qayd etadi. Ular olib borgan tadqiqotlarida saylov davrlarida ayol blogerlar va mustaqil jurnalistlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatgan. Ular faqat siyosiy jarayonlarni yoritish bilan cheklanmasdan, balki gender zo'ravonlik, ta'limda tenglik va mehnat bozorida imkoniyatlar kabi ijtimoiy mavzularni ham keng yoritishadi.

Padmaja Shaw tadqiqotlarida fuqarolik jurnalistikasini demokratiya va shaffoflikning muhim omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, ayollar ishtirokidagi media kontent Hindistonda marginal guruhlar ovozi eshittirish, ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Arul Aram esa gender muammolarini alohida o'rganib, fuqarolik jurnalistikasida ayollarning ishtiroki demokratik jarayonlarni mustahkamlashini ta'kidlaydi. Uning tahlillarida ayol blogerlar fuqarolik maydonida "ovozsizlar ovozi"ga aylanib, ijtimoiy tenglik va inson huquqlari masalalarida juda faollik ko'rsatishi alohida qayd etilgan. Amrita Basu esa ayollarning ijtimoiy harakatlar va media orqali siyosiy jarayonlardagi ishtiroki haqida yozgan. Unga ko'ra, Hindistonda fuqarolik jurnalistikasi feminist harakatlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, gender tengligi uchun kurashning muhim platformasiga aylangan deya tadqiq etgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, Osiyo mamlakatlarida raqamli jurnalistika ayollar uchun jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etish va ijtimoiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashning muhim maydoniga aylanmoqda. Hindiston, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribalari ayollarning raqamli media orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi, inson huquqlari va gender adolati masalalarini keng yoritishdagi salohiyatini namoyon etdi. Shu bilan birga, tahlillar ayollar raqamli maydonda hali ham kiberbezorilik, onlayn tahdidlar, stereotipik munosabatlar va kasbiy cheklovlarga duch kelayotganini ko'rsatdi. Bu holat raqamli jurnalistikada gender tengligi masalasi to'liq hal etilmaganini anglatadi.

Janubiy Koreya misolida raqamli jurnalistika ayollar uchun ijtimoiy faoliyat, demokratik nazorat va siyosiy ishtirok maydonini yaratsa-da, patriarxal qadriyatlar va kiberxavfsizlik muammolari ularning barqaror faoliyatini cheklab turibdi. Hindistonda esa fuqarolik jurnalistikasi orqali ayollar ijtimoiy adolat va gender tengligi uchun kurashayotgan bo'lsalar, infratuzilma va onlayn xavfsizlik tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi ularning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yaponiyada raqamli jurnalistikada ayollar soni ortib borayotganiga qaramay, media industriyadagi an'anaviy gender iyerarxiyasi va stereotiplar hanz kuchliligicha qolmoqda.

Olingan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni qayd etishimiz lozim:

1. Kiberxavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish. Ayol jurnalist va blogerlar uchun onlayn xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kibertahdidlarga qarshi huquqiy choralar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

2. Media sohasida gender tengligini ta'minlash siyosati. Raqamli jurnalistikada ayollar rahbarlik lavozimlariga chiqishi uchun imkoniyatlar kengaytirilishi, redaksiyalar va onlayn platformalarda gender balansni saqlash bo'yicha institutsional standartlar joriy etilishi zarur.

3. Madaniy va ijtimoiy stereotiplarni kamaytirish. Ayollarning raqamli maydondagi faolligini cheklovchi patriarxal qarashlarni o'zgartirish maqsadida media savodxonlik va gender tenglikka oid ma'rifiy kampaniyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

4. Fuqarolik jurnalistikasi platformalarini qo'llab-quvvatlash. Ayollar tomonidan yuritilayotgan mustaqil onlayn platformalarga moliyaviy, axborot va texnik yordam ko'rsatish davlat va nodavlat institutlari faoliyatida ustuvor yo'nalishga aylanishi kerak.

5. Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish. Raqamli jurnalistikada gender masalalarini chuqur o'rganish uchun Osiyo mamlakatlari tajribalarini taqqoslaydigan, ma'lumotlarga asoslangan tahlillar va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilishi muhim.

6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Osiyo davlatlari o'rtasida ayollar media sohasidagi ishtiroki bo'yicha tajriba almashish, qo'shma loyihalar va o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish raqamli jurnalistikada tenglikni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Osiyo mamlakatlarida raqamli jurnalistika ayollar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq bu jarayon barqaror bo'lishi uchun raqamli makonda xavfsizlik, teng imkoniyat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi tizimli yondashuv zarur. Faqat shundagina raqamli fuqarolik jurnalistikasi haqiqiy demokratik va inklyuziv maydonga aylanishi mumkin.

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati**

1. Byerly, C. M. (2013). The Palgrave International Handbook of Women and Journalism. Palgrave Macmillan.
2. Matsui, K. (2019). Womenomics and Digital Participation in Japan. Tokyo University Press.
3. Ranganathan, M., & Rodrigues, U. (2020). Indian Women Journalists in the Digital Age: Challenges and Opportunities. Media Asia.
4. Kim, H. (2021). Women and Online Journalism in South Korea. Korean Journal of Communication Studies.
5. UNESCO. (2021). The Chilling: Global trends in online violence against women journalists. Paris: UNESCO.
6. Suzuki, M. (2015). Media Literacy [Gender Approach]. Tokyo: Otsuki Shoten.
7. Tonami, A., & Yamamoto, H. (2021). Women, Social Media and Political Engagement in Japan: A Survey Study. Interdisciplinary Journal of Asian Studies, 12(2), 33–56.
8. Ishiyama, R. (2013). Japan: Why So Few Women Journalists? In The Palgrave International Handbook of Women and Journalism. Palgrave Macmillan.
9. Tanaka, T. (2020). Possibility of Analyzing Online Space and Women's Expressive Culture. Mass Communication Studies, 83, 45–62.
10. Matsui, K. (2019). Womenomics and Digital Participation in Japan. Tokyo University Press.
11. [Women, Social Media and Political Engagement in Japan: A Survey Study | International Quarterly for Asian Studies](#)
12. Stockemer 2007
13. Ranganathan, M., & Rodrigues, U. (2020). Indian Journalism in a New Era: Changes, Challenges, and Perspectives. Routledge.
14. Banaji, S. (2017). Children and Media in India: Narratives of Class, Agency and Social Change. Routledge.
15. Shaw, P. (2012). Gender, Media and Democracy in India. Economic and Political Weekly.
16. Aram, A. (2019). Citizen Journalism in India: Issues of Gender and Participation. Journal of Content, Community and Communication.
17. Basu, A. (2010). Women's Activism in a Globalizing World. Westview Press.
18. Sen, A. (2019). "Digital Media and Gender in India: Women's Voices in Online Spaces." Media Asia, 46(1–2), 34–45.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---